

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

YANGI O'ZBEKISTON
STRATEGIYASINI AMALIYOTGA JORIY
ETISHNING NAZARIY-METODOLOGIK
ASOSLARI

Respublika ilmiy-nazariy konferensiya to'plami

(2024-yil 27-mart)

Farg'ona -2024

«Yangi O'zbekiston strategiyasini amaliyotga joriy etishning nazariy-metodologik asoslari». – Farg'ona, 2024-yil 27 mart. – 410 b.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi PF-60-son Farmoni, 2019-yil 8-oktyabrdagi “O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi PF-5847-sonli Farmoni hamda 2024-yilga mo'ljallangan xalqaro va respublika miqyosida o'tkaziladigan ilmiy va ilmiy-texnik tadbirlar ro'yxatini tasdiqlash to'g'risidagi buyrug'idagi ustuvor vazifalarini amalga oshirish maqsadida “Yangi O'zbekiston strategiyasini amaliyotga joriy etishning nazariy-metodologik asoslari” mavzusidagi Respublika ilmiy-nazariy anjumani tashkil etildi.

Mas'ul muharrirlar:

Asatulloev I.A. – falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD), dotsent

Mirzaraximov B.X. – falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD)

Ilmiy-amaliy anjuman materiallari to'plamida Yangi O'zbekiston strategiyasini amaliyotga joriy etishning nazariy-metodologik asoslari bo'lgan milliy iqtisodiyotni rivojlantirish, adolatli ijtimoiy siyosatni rivojlantirishning konseptual omillari, ma'naviy va ma'rifiy taraqqiyotning tarixiy-falsafiy mushtarakligi va yangi O'zbekiston va umubashariy muammolar dialektikasi tahlil qilingan.

Ma'ruza tezislarida berilgan ma'lumot uchun mualliflarning o'zlari javobgar hisoblanishadi.

© Farg'ona davlat universiteti, 2024

Mamlakatdagi kambag'allikni bartaraf etish yo'llaridan biri bo'lgan – ijtimoiy himoya samaradorligini oshirish faqatgina kompleks yondoshuvlar orqaligina amalga oshirilishi mumkin. So'nggi yillarda kambag'allikni yengishga hissa qo'shadigan boshqa sohalarda ham salmoqli sa'y-harakatlar amalga oshirildi. Ularga yangi ish o'rinlari yaratish va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, qishloq joylari va qishloq xo'jaligini rivojlantirish, qishloq joylarda infratuzilmani takomillashtirish, sog'liqni saqlash, kasb-hunar ta'limi va tarbiyasini yaxshilash hamda iqtisodiy migratsiya kiradi. Bu sohalarda oxirgi yillarda amalga oshirilayotgan ijobiy o'zgarishlar mamlakatimizning uzoq muddatli kambag'allikni qisqartirish dasturining muhim qismi hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Yangi O'zbekiston ijtimoiy- siyosiy gazetasi 2021 yil 7-nayabr.
2. "Ma'rifat" gazetasi 2023.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF - 4947-sonli Farmoni.
4. Shavkat Mirziyoyev "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi" T. O'zbekiston 2022-B.262
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, № PQ-3160, 28 iyul 2017 yil

MA'NAVIY TAHDIDGA QARSHI MA'RIFIY KURASH ASOSLARI

Xolova U.U.

BuxDU "Islom tarixi va manbashunosligi, falsafa" kafedrasida o'qituvchisi

Ma'lumki, hozirgi globallashuv davrida jamiyatimizda, balki butun dunyoda ma'naviy tahdidlarning turli xil jihatlarini ko'rishimiz mumkin. Ma'naviy tahdid orqali insonlarning ongiga, ruhiyatiga yot g'oyalarni singdirish, ularning milliy qadriyatlar va urf-odatlariga putur yetkazish, milliy iftixor tuyg'usiga zarba berish, farovon hayotda yashashlariga to'siq qo'yishadi. O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I. Karimovning "Yuksak ma'naviyat- yengilmas kuch" asarida ham ma'naviy tahdidning bir qancha xususiyatlarini ham ko'rsatib o'tilgan bo'lib, "birinchidan, insonning ruhiy dunyosini izdan chiqarish maqsadini ko'zda tutadigan mafkuraviy, g'oyaviy va axboriy xurujlar;

ikkinchidan, avvalo, tili, dini e'tiqodidan qati nazar, har qaysi odamning tom ma'nodagi erkin bo'lib yashashiga qaratilgan xurujlar;

uchinchidan, milliy va diniy tomirlarimizga bolta urushni, ulardan bizni butunlay uzib tashlashdek yovuz maqsadlarni ko'zlagan mafkuraviy xurujlar;

to'rtinchidan, milliy g'urur, milliy iftixor tuyg'usiga, ozod va farovon hayot barpo etishdek ezgu maqsadlarimizga katta zarba beradigan mudhish xavf-xatarlar;

beshinchidan, begona mafkura va dunyoqarashning, avvalo, yoshlarimizning qalbi va ongiga singdirishga qaratilgan xatarlar;

oltinchidan mamlakat xavfsizligi va milliy manfaatlarga tahdid soladigan hamda jamiyatdani inqirozga olib keluvchi xavf-xatarlar"[14.308]. Ko'rinib turibdiki, ma'naviy

tahdid faqat insonning ongiga emas, balki butun jamiyatni ham halokat yoqasiga olib borib qo'yishi mumkin ekan. Darhaqiqat ma'naviy tahdid aynan bir sohaga qaratilmagani bilan o'ta xavflidir. U jamiyatga har-xil ko'rinichda namoyon bo'lmoqda. Masalan, hozirgi kunda ommalashib ketgan axborot vositalari orqali insonlarning ongiga yot g'oyalarni singdirish oson bo'lib qoldi. Chunki dunyodagi deyarli barcha inson ijtimoiy tarmoqlardan keng foydalanadi, bu esa o'z navbatida ular uchun keng yo'l ochilganini anglatadi.

S. Minavarov zamonaviy sohadagi ma'naviy tahdidlar sifatida xalqaro terrorism, diniy ekstremizm, fundamentalizm va narkobizneslarni ham kiritadi. Uning fikricha, "Dunyodagi global muammolardan biri, haqiqattan, ekstremizm va terrorism hisoblanadi. Ularning asosiysi dinni niqob qilib, din orqali insonlarning ongiga kirib borish va qabih niyatlariga etishdir. Bu esa o'z navbatida jamiyatdagi barqarorlikni buzish, atrofdagi insonlarning ongiga zarar yetkazish orqali insonlar ichiga kirib bormoqda. Ekstremistik va terroristik tashkilotlar juda ham ko'p va ularning ko'pchiligining maqsadi islom fundamentalizmidir. Hozirgi yillarda yuqorida qayd etganlarimizga qo'shimcha ravishda odam va qurol savdosi, OITS, rangli inqiloblar, korruptsiyalarga ham ma'naviy tahdid sifatida qarashmoqda"[28.190]. Biznigcha bular ham qaysidir ma'noda ma'naviy tahdidga kiradi, lekin OITSni bunga qo'shish to'g'ri bo'lmaydi, chunki u faqat ottirilgan imunitet tanqisligi sindromi holos. U kimningdir hayotiga yoki jamiyatga zarar yetkazadi deb bo'lmaydi. Boshqalari esa insoniyatni balki butun jamiyatning ma'naviy ongini izdan chiqaradi. Har bir davlatda ichki ma'naviy tahdidlar ham bo'lishi mumkin. Davlatda ichki barqarorlikni ta'minlash har bir fuqaroning burchi desak xato bo'lmaydi. Shuni ta'kidlash joizki, ma'naviy tahdidlar shaxsning aqliy va axloqiy jihatdan buzishga qaratilgan maqsadli xurujlar hisoblanadi.

Hozirgi kunda yurtimizda buni oldini olish uchun Prezidentimizning 2019-yil 3-maydagi qarori bilan "Ma'naviy-marifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori qabul qilindi. Buning asosiy maqsadi ma'naviy-marifiy ishlar samaradorligini ta'minlash, aholini, ayniqsa, yoshlarning ongi va dunyoqarashini yuksaltirish, mafkuraviy immuniterni mustahkamlash, vatanparvarlik, xalqqa muhabbat va sadoqat tuyg'usi bilan yashaydigan barkamol avlodni tarbiyalashdir. Ko'rinib turibdiki, bizning yurtimizda ham ma'naviy tahdidning oldini olish bo'yicha bir qator chora tadbirlar o'tkazilmoqda.

Yuqoridagi fikrlarimizni jamlagan holda, "ma'naviy tahdid insonlarning ruhiy dunyosiga ta'sir ko'rsatib, uni izdan chiqarishga, jamiyatning ma'naviy-axloqiy ildizlariga putur yetkazishga, davlatda millatlararo va konfessiyalararo konfliktlarning paydo bo'lishiga olib keluvchi omillardir"[31.190] Shundan ham ko'rinib turibdiki, ma'naviy tahdid orqali faqat shaxslarga emas, balki jamiyat, davlat va millatlar orasida nizolar kelib chiqishiga olib keladi. Davlatning ma'naviy sohadagi manfaatlariga putur yetkazadi.

Xulosa qilib aytganda, ma'naviy tahdidning turli xil ko'rinishlari jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy hayotda turli xil ko'rinishlarda, maqsadlarda va turli shakldagi munosabatlarda ko'rishimiz mumkin. O'zbekiston Taraqqiyotining yangi bosqichida amalga oshirilmoqdaislohotlar ma'naviy sohadagi faoliyatga qaratilgan va jamiyatda 130 dan ortiq millat va elat vakillari yashayotgan bo'lsa, ular millatlararo bag'rikenglik asosida yashab kelmoqda. Bugungi kunda yoshlarni ma'naviy tahdidlardan saqlash maqsadida

shunday ko'p millat va elatlik davlatlarda turli xildagi mojarolarni keltirib chiqarmaslik, ularning ongiga yot g'oyalarni singdirish orqali dunyoqarashlari sog'lomlashtirish, insonlardagi milliy qadriyat va urf-odatlariga hurmat bilan munosabatda bo'lishga targ'ib qilishdan iborat. Hozirgi kunda yoshlarni ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishini o'rniga kitob o'qishga rahbatlantirish kerak. Ijtimoiy tarmoqlardan to'g'ri, oqilona foydalanadigan insonlar ham bor, lekin ko'pchilik insonlar juda ko'p vaqtini behuda sarflamoqda. Biz yoshlar jamiyatning bir a'zosi sifatida davlatimizga ma'naviy tahdidning oldini olish bo'yicha olib borayotgan faoliyatiga o'z hissamizni qo'shishimiz lozim. Shu bo'yicha o'zimizning taklifim, birinchidan, asosan, voyaga yutib kelayotgan yosh avlodni to'g'ri tarbiyalash, ikkinchidan, maktabgacha ta'lim muassasalarida va maktabda eng muhimi oilada ma'naviyatning ta'sirini ajdodlarimiz jasoratlari misolida uqtirilishi lozim, uchinchidan esa, hozirgi kunda hammamiz ko'rib turgan turli xildagi bannerlarni o'zgartirish kerak, chunki unda turli xildagi reklamalar emas, balki jadidlarimizning kitoblaridan parchalar yozib qo'yilsa maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. - T.: Ma'naviyat, 2008.
2. Minavarov S. Ma'naviy sohadaagi zamonaviy tahdidlar / Jamiyat va boshqaruv. - Toshkent, 2009.
3. Islomov I.N. Ma'naviy xavfsizlik. Monografiya. - T.: Kompleks Print, 2023.

YANGI O'ZBEKISTONDA JADIDCHILIK G'OYALARINING O'RNI

Ne'matova Sarvinozxon Nizomjon qizi

Farg'ona davlat universiteti

Milliy g'oya va ma'naviyat asoslari, huquq ta'limi yo'nalishi talabasi

Turkiston jadidchilik harakatining vujudga kelishi asta-sekin bo'lsada milliy-ozodlik mafkurasiga aylanib bordi. Ularning asosiy maqsadi millatni birinchi tomondan ilm-ma'rifatli qilish bo'lsa, ikkinchi tomondan ularning axloqiy darajasini yuksaltirish va o'z qadrini anglagan barkamol shaxsni voyaga yetkazish bo'lgan. Jadidchilik harakati vakillari o'zlarining ma'rifatparvarlik mafkurasiga birinchi tomondan o'sha davr uchun dolzarb bo'lgan demokratik g'oyalarni ilm o'rganish, fan-texnika yutuqlaridan bahramand bo'lish, ilmiy-tabiiy fanlarni rivojlantirish, so'z va fikr erkinligini joriy etish, demokratik davlat qurilishiga asoslangan milliy davlatchilikni vujudga keltirish, milliy g'oyalar qatlamini shakllantirish, adabiyot va san'atni zamonaviy janrlarni rivojlantirish, adabiyot va san'atni zamonaviy janrlarni rivojlantirish, ikkinchi tomondan mustamlakachilik siyosati ta'siri ostida o'z milliy qiyofasini yo'qotayotgan turkiy til va milliy qadriyatlarni tiklash, milliy-ma'naviy va axloqiy tamoyillarni yanada kuchaytirish, milliy o'zlikni anglash, milliy ong va milliy mafkurani va diniy e'tiqodlarni mustahkamlash kabi g'oyalarni asos qilib oladi. Jadidlarimizdan Behbudiyning "Muhtaram yoshlarga murojaat maqolasida" ta'limning jamiyat taraqqiyotidagi millat ravnaqidagi o'rnini quyidagicha izohlaydi: "Barchamizga oftob kabi ravshan ayondir-ki, maktab taraqqiyotning boshlang'ichi, madaniyat va saodatning darvozasidir"[3].

	<i>kompetentligini rivojlantirishga ta'sir etuvchi pedagogik-psixologik omillar tavsifi</i>	
M.S.Xoshimov	<i>Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kommunikativ kompetensiyasini xalq o'yinlari asosida shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari</i>	238-243
Q.H.Boymirzayev	<i>Abu Abdulloh Rudakiy nasihat va hikmatlarida falsafiy masalalarning yoritilishi</i>	243-249
S.M.Abdullayev	<i>Bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchilarining kognitiv kompetentligini integrativ yondashuv asosida rivojlantirishning pedagogik ososlari</i>	249-252
S.M.Abdullayev	<i>Bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchilarida kognitiv kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik jihatlari</i>	252-256
SH.D.Xonbabayev	<i>Bo'lajak o'qituvchilarni o'quvchilarda milliy va umummadaniy kompetensiyalarni rivojlantirishga tayyorlashning shart-sharoitlari va imkoniyatlari</i>	256-259
M.Ш.Тургунова	<i>Влияние историко-философских факторов на моральное и когнитивное развитие человечество</i>	259-263
N.O.Yusubova	<i>O'zbekiston ma'naviy-ma'rifiy ishlar samarodarliligini oshirish hamda aholining ijtimoiy ma'naviy muhit holatini o'rganish</i>	263-266
U.U. Xolova	<i>Ma'naviy tahdidga qarshi ma'rifiy kurash asoslari</i>	266-268
S.N.Ne'matova	<i>Yangi O'zbekistonda jadidchilik g'oyalarining o'рни</i>	268-270
SH.R.Ahmadjonova	<i>Sifatli ta'lim - yangi O'zbekiston taraqqiyotining poydevori</i>	270-271
B.S.Sharipova	<i>Bo'lajak biologiya fani o'qituvchilari bioetik madaniyatida ijtimoiy-pedagogik meyorlar tasnifi</i>	271-274
M.S.Xoshimov	<i>Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kommunikativ kompetentlikni shakllantirishga xizmat qiluvchi xalq o'yinlari va ularni tashkil etishning o'ziga xos jihatlari</i>	274-280
SH.D.Xonbabayev	<i>Bo'lajak o'qituvchilarni o'quvchilarda milliy va umummadaniy kompetensiyalarni rivojlantirishga tayyorlashning tashkiliy usullari</i>	280-286
A.B.Xolmatjonov	<i>Yangi O'zbekistonda yoshlarning milliy yuksalish tafakkurini rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik asoslari</i>	286-288
M.A.Raxmonova	<i>Fitrat ma'naviy-axloqiy qarashlarining tarixiy-falsafiy mohiyati</i>	288-291
Sh.Sh.Saidahmadov	<i>Yangi O'zbekiston ma'naviy va ma'rifiy taraqqiyotida hadislarning o'рни</i>	292-294

4-SHO'BA: YANGI O'ZBEKISTON VA UMUBASHARIY MUAMMOLAR DIALEKTIKASI

T.M.Maxamatov	<i>Проблемы передачи освоения подрастающим поколением традиционных ценностей в условиях неоглобализации</i>	295-303
M.A.Mamatov		
A.Axmedjanova	<i>Qirgiz madaniyatida gumanizm prinsipining o'рни</i>	303-306
A.B. Fulofov	<i>Жадидлар меъросида адолатли ва маърифатли</i>	306-309
Ф. Муроталиева	<i>Жамият қуриш ҳақидаги қарашлар</i>	
N.Sobirov,	<i>Yoshlar-yangi O'zbekiston kelajagi</i>	309-313
E.T.Xakimov,		